



ELEKTRON JADVALNING IMKONIYATLARI VA VAZIFALARI

Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası assistenti.

[*shahbozrajabboyev@gmail.com*](mailto:shahbozrajabboyev@gmail.com)

Abduqodirov Javohir Muzaffarevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

kechki va ikkinchi ta'lim fakulteti talabasi.

Annotatsiya: Hozirgi davrda har bir sohada o'zgarishlar va yangicha qarashlar orqali sohani rivojlantrish va yanada barqarorlikni oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlar davomiyligidagi asosiy tamoyilardan biri sifatida ma'lumotlar bazasini shakllantrish va avtomatlashtirish jarayonida elektron jadvallar (Excel, Google Sheets va boshqalar) zamonaviy axborot texnologiyalarida keng qo'llaniladigan vosita bo'lib, ular ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, hisoblash va vizualizatsiya qilish imkonini taqdim etish orqali ish jaroyanidagi ma'lumotlar va turli xil hisob-kitob ammallarini tezkorlik bilan sinxorlash va optimal yechimni taqdim etib kelmoqda. Ma'lumotlarni vizual va matli shakillarda taqdim etish orqali tezkor tahlil qilish, tushunarli va shu bilan birga taqqoslash kabi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Kalit so'zlar: Vizualizatsiya, sinxorlash, Optimal yechim, Raqamli transformatsiya.

Kirish. Ma'lumki barcha tarmoqlarda ish samaradorligini oshirish va avtomatlashtirishga yangidan yangi texnologek va imkonyati yuqori bo'lgan dasturlar keng miqyosida qo'llanilib kelmoqda. Kun sayin bu dasturlardagi ma'lumotlar asosida ish jarayonidagi ket-ketlikdagi amallar bajarilib kelmoqda. Hozirgi vaqtda hajm jihatdan yuqori va keng miqyosida, hayotning har bir qismida samarali



foydalib kelinayotgan bu elektron jadvallar hisoblanmoqda. Elektron jadvallar kechik savdo markazlari shu bilan bir qatorda iqtisodiyotning har bir tarmog'ida eng muhim va aniq raqamlarni aks etayotgan inavatsion texnologiyalardan biri bo'lganligi sababli raqamli transformatsiya jarayonlari orqali barcha sohalarda chuqur o'zgarsihlarga sababli bo'lmoqda. Axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi natijasida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish usullari ham tubdan yangilanmoqda. Shu jarayonda elektron jadvallar (Microsoft Excel, Google Sheets va boshqa dasturlar) zamonaviy axborot tizimlarining ajralmas vositasi sifatida alohida o'rin egallaydi. Ular nafaqat oddiy hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, balki murakkab iqtisodiy, moliyaviy va ilmiy tahlillarni ham samarali amalga oshirish imkonini beradi. Elektron jadvallar yordamida ma'lumotlarni saqlash, vizualizatsiya qilish, hisoblash va taqqoslash jarayonlari tezkor va aniq bajariladi. Bu esa foydalanuvchilarga turli sohalarda iqtisodiyot, ta'lim, boshqaruv, ilmiy tadqiqotlar va kundalik faoliyatda optimal yechimlarni topish imkonini yaratadi. Shu sabablariga ko'ra elektron jadval imkoniyatlarini keng ma'noda anglay bilish hozirgi davrda muhim hisoblanmoqda. Ushbu maqola elektron jadvallarning asosiy vazifalari, ularning amaliy qo'llanilishi va raqamli transformatsiya jarayonidagi o'rni haqida batafsil tahlilni taqdim etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Elektron jadvallar yordamida hisobotlar yaratish zamonaviy axborot texnologiyalarida muhim vosita sifatida ko'riladi. Xalilillayevna Y. X (2026) o'zining "Elektron jadvalda hisobotlar yaratish" nomli maqolasida Excel dasturidan foydalanib ma'lumotlarni tahlil qilish, formulalar (SUM, AVERAGE, IF, COUNT), diagrammalar (ustunli, chiziqli, doiraviy) va pivot jadvallar orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni umumlashtirish hamda samarali hisobotlar tayyorlash usullari orqali najarilayotgan ishlar aniqlik jihatdan yuqori. Elektron jadvallar faoliyatini baholash, samaradorlikni oshirish va tezkor qaror qabul qilishda eng muhim vosita sifatida qo'llashga qaratilgan natijalarini



baholash va shartli tahlillarni avtomatlashtirish orqali ish jarayonini optimallashtirishdir[1].


Musayevich S. A., Asqarovich A. J (2025) esa electron jadvallar moliya sohasida keng ko‘lamli natijalarga erishish maqsadida foydalanilib kelimayotganligi haqidagi fikrlarni yoritgan. Microsoft Excel dasturidagi PV (Present Value), FV (Future Value), PMT, NPV (Net Present Value), IRR (Internal Rate of Return), RATE, IPMT, PPMT kabi moliyaviy funksiyalar hamda amortizatsiya hisoblash usullari (SLN, DB, DDB) moliya sohasida electron jadvallar asosida foydalanilayotgan keng ko‘lamli qo‘llanishlar natijasida excel dasturidagi moliyaviy funksiyalar yordamida kredit to‘lovlari, investitsiya samaradorligi, pul oqimlarining hozirgi va kelajak qiymatini aniqlash, amortizatsiya hisoblash kabi murakkab moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish va tahlil qilish va shu bilan birga foydalanuvchilarda tahliliy fikrlash va puxta moliyaviy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali iqtisodiy va moliyaviy jarayonlarni samarali boshqarish va raqobatbardosh qarorlar qabul qilish kabi imkoniyatlar yaratilmoqda[2].

Musayevich S. A., Sadoqat A. (2025) Jadvallarda ketma-ket tarzda ish jarayonini bajarish imkoniyatiga erishish jarayonida turli funksiyalar yordamida foydalanish muhim hisoblanishi va unda foydalaniladigan funksiyalar haqida yoritgan. Jadval hisoblagichidagi mantiqiy funksiyalar (IF, AND, OR, NOT, IFS, SWITCH) zamonaviy axborotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirishda muhim vosita sifatida ko‘riladi. Tadqiqotda bu funksiyalarning ishlash prinsipi, ularning hisob-kitoblarni soddalashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va xatolik ehtimolini kamaytirishdagi roli SWOT tahlil asosida baholangan, shuningdek, bu funksiyalar ta’lim, iqtisodiyot, buxgalteriya va menejment sohalarida qo‘llanilganda foydalanuvchilarda mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi[3].



Ariana I. M., Bagiada I. M. (2018) lar o‘zlarining “Ariana I. M., Bagiada I. M. Development of spreadsheet-based integrated transaction processing systems and financial reporting systems“nomli maqolasida Elektron jadvallar moliya tezimida keng foydalanilayotganligi sababli elektron jadvallar asosida yaratilgan integratsiyalashgan tranzaksiya qayta ishlash va moliyaviy hisobot tizimlari buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirishda samarali vosita sifatida ko‘rilishi va unda sodir bo‘ladigan jarayonlar haqida yoritgan. Tadqiqotda savdo, xarid va naqd pul tranzaksiyalarini yagona tizimda birlashtirish orqali foydalanuvchilarga daromad va zararlar hisobi, kapitaldagi o‘zgarishlar, moliyaviy holat va pul oqimlari kabi to‘liq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash imkoniyati berilishi ko‘zda tutiladi. Elektron jadvallar asosidagi integratsiyalashgan tizimlar texnik jihatdan qulay (87.5%) va operatsion jihatdan samarali (84.17%) bo‘lib, foydalanuvchilarga tezkor, aniq va ishonchli moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etish orqali qaror qabul qilishni yengillashtiradi[4].

Tahlil va natijalar: Ma’lumki yillar o‘tishi bilan texnologiyalar rivojlanmoqda .Bu shuni anglatadeki electron jadval imkonyatlari ham shu bilan rivojlanadi va takomillashib boradi,bu esa o‘z navbatida foydalanuvchilar sonini ham ortishiga olib keladi.



1-rasm. Elektron jadvallardan foydalanuvchilar soni



Jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida aytishimiz mumkinki elektron jadvallardan foydalanuvchilar hajmi yildan-yil ortib bormoqda. 2020-yilga kelib foydalanuvchilar hajmi 800 mln tashkil etdi bunga asosiy sabalardan ber covid-19 hisoblanadi. Sababi shu yillar davomida ishlar onlayn uydan bajarilish hajmi ortib ketdi, natijada hisobotlar va umumiy tahlillar jadvallar asosida taqdim etila boshladi. Bu esa tabiiy ravishda elektron jadvallardan foydalanuvchilar hajmini ortishiga olib keldi. 2021-yilga kelib 880mln tashkil etdi. Bu esa bazis yilga nisbatan 10% o'sganligini anglatadi. 2022-yilga kelib moliyaviy funksiyalar orqali murakkab tahlillarni avtomatlashtirish ga bo'lgan atalab otdi va buning natijasida foydalanuvchilar hajmi 950 mln tashkil etdi. 2025-yilga kelib 1.1 mlrd ni tashkil etdi. Bunga asosiy sabab sifatida Google Sheets foydalanuvchilari 12% o'sdi, 10 mln to'lovli biznes mijozlar qo'shildi. 2020-yildan 2025-yillar oralig'idagi umumiy o'sish 37.5% tashkil etadi. Bu ma'lumotlar asosida shuni aytsih joizki elektron jadvalga bolgan talab yil sayin ortib bormoqda va bu yanada ortadigan ko'rsatkich hisoblanadi.

Xulosa va taklif: Elekektron jadvalga bo'lgan talab har bir sohada chakana savdogorlikdan, davlat organlari moliya tashkilotlarigacha keng miqyosida foydalinmoqda. Jadvallar asosida ish jarayonini avtomatlashtirish orqali ish jarayonini tezlashtirib samaradorlikni oshirishga erishish asosini tashkil etmoqda. Elektron jadvallar ma'lum bir dastur asosida ish jarayonini olib borishi ma'lum. Elektron jadvallarning xavsizlik jihatdan salbiy qismi hisoblanaishi, ayniqsa bu holat davlat tashkilotlari va katta-katta korxonalar miqyosida asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Shunga qaramasdan tajribali va yangi bilim ko'nikmalarga ega dasturchilarning joriy etilishu va kibrxavsizlik sohasi mutahasislarini ko'paytirish orqali dasturlar va xavsizlikni oshirish orqali bu xavflarga yechim topish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Muammolarga yechimlarni hisobga olgan holda elektron jadvallarning imkoniyatlari va hozirgi kundagi imkoniyatlari salbiy taraflarini minimalashtirishi muhim ahamyat kasb etyadi va uning imkoniyatlariga



hech qanday cheklov quymaydi. Elektron jadvallarni imkoniyatlari va uning vazifalarini chuqur o‘rganish orqali ish barqarorligini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalilillayevna Y. X. ELEKTRON JADVALDA HISOBOTLAR YARATISH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2026. – Т. 65. – №. 2. – С. 320-327.
2. Musayevich S. A., Asqarovich A. J. EXCEL JADVAL HISOBLAGICHIDAGI MOLIYAVIY FUNKSIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH //Ustozlar uchun. – 2025. – Т. 86. – №. 1. – С. 354-357.
3. Musayevich S. A., Sadoqat A. EXCEL JADVAL HISOBLAGICHIDAGI MANTIQUIY FUNKSIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH //Ustozlar uchun. – 2025. – Т. 86. – №. 2. – С. 115-119.
4. Ariana I. M., Bagiada I. M. Development of spreadsheet-based integrated transaction processing systems and financial reporting systems //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2018. – Т. 953. – №. 1. – С. 012102.
5. Mohammad, A. A. Sh., Salinas, L., Muzrapova, Sh., Baxriddinov, N., Ahrorov, Z., & Boronov, B. (2025). The impact of online accounting through the expansion of financial technologies on improving the performance of financial institutions and banks. *Economic Annals-XXI*, 215(5-6), 16-21. doi: <https://doi.org/10.21003/ea.V215-03>
6. Rajaboyev Sh.Sh., and Jumayev L.G‘.. "TA'LIM SOHASIDA MA'LUMOTLAR BAZASINI QO'LLANISHI" Экономика и социум, no. 4-2 (119), 2024, pp. 407-411.
7. Rajaboyev Sh.Sh., and Ziyodullayev F.V.. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI



- ТО‘G‘RISIDAGI QARORLAR MOHIYATI" Экономика и социум, no. 5-1 (120), 2024, pp. 675-680.
8. Rajaboyev Sh.Sh., and Umidov D.U.. "AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING BUXGALTERIYA SOHASIDAGI O'RNI" Экономика и социум, no. 4-2 (119), 2024, pp. 393-396.
9. Rajaboyev Sh.Sh., and Rahmatov O.A.. "IQTISODIY AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASH BAZASINING TARKIBI VA UNI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI" Экономика и социум, no. 4-2 (119), 2024, pp. 397-402.
10. Rajaboev Shahboz Shodiyevich, and Rahmatov Ozodbek Aktam O'g'li. "Information Technology Is Now Used Everywhere". *Miasto Przyszłości*, vol. 44, Jan. 2024, pp. 114-21, <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2372>.
11. Rajaboev, Shahboz Shodiyevich, and Abdunazar Burkhonovich Gaffarov. "ESSENCE OF DECISIONS ON MEASURES FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES." *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal* 2.1 (2025): 120-125.
12. Ражабоев , Ш., и П. Хамидова. «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ». *Экономическое развитие и анализ*, т. 3, вып. 1, январь 2025 г., сс. 120-4, <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/65480>